МЕТОДЫ СБОРА И АНАЛИЗА ДАННЫХ ДЛЯ ОЦЕНКИ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ ЦИФРОВЫХ ИНВЕСТИЦИЙ.....	776
Каракулов Фарход Зайпудинович	



НЕФОРМАЛЬНАЯ ЗАНЯТОСТЬ И ТЕНЕВАЯ СТОРОНА ЭКОНОМИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: АНАЛИЗ СТРУКТУРНЫХ ВЫЗОВОВ И ГОСУДАРСТВЕННЫХ МЕР ПО ЛЕГАЛИЗАЦИИ	782
Салахутдинова Юлдуз Голибовна	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISH MODELLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	787
Xalikov Akmal Xolboyevich	
TIJORAT BANKLARDA MOLIYAVIY XIZMATLARNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ISTIQBOLLARI	793
Roziqov Behzod Bahrom o'g'li	
RAQOBATBARDOSH MUHITDA INNOVATSION MENEDJMENTNI JORIY ETISH MEXANIZMLARI	799
Siddikov Askar Axrorovich	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASINI BAHOLASHNING MEZON VA USULLARI	803
Isakova Naima Ikromjonovna	



XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASINI BAHOLASHNING MEZON VA USULLARI



Isakova Naima Ikromjonovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
“Ekonometrika” kafedrası PhD v.b dotsenti
ORCID: 0009-0008-3370-6882

Annotatsiya. Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish korxonalarining marketing strategiyasini ishlab chiqish, uning faoliyatini samarali yo'lga qo'yish hamda natijaviylik darajasini baholash bo'yicha tahlillar amalga oshirilgan. Mazkur sohada xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar batafsil o'rganilgan. Shuningdek, marketingni baholash jarayonida rejalashtirish tamoyillariga e'tibor berilishi, korxona o'sishini baholash strategiyasini uch bosqichli tahlil asosida shakllantirish zarurligi, marketing nazoratining asosiy bosqichlari, ishlab chiqarish bo'limi doirasidagi marketing dasturining qanday maqsadlarga qaratilgani, shuningdek, marketing strategiyasini baholashda qo'llaniladigan mezon va usullar, makro va mikromuhit omillarining ta'siri batafsil ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: marketing strategiyasi, mahsulot sifatini oshirish va sifatni baholash, salohiyatli mijozlarni aniqlash, analitik baholash, vositalar.

Abstract. This article analyzes the development of a marketing strategy for service enterprises, the effective organization of its implementation, and the assessment of its performance outcomes. The studies conducted by foreign scholars in this field are examined in detail. In addition, the article highlights the importance of focusing on planning principles in the marketing evaluation process, the necessity of forming a company growth assessment strategy based on a three-stage analysis, the main stages of marketing control, the specific objectives of the marketing program within the production department, as well as the criteria and methods used to evaluate marketing strategies, including the influence of macro- and micro-environmental factors.

Key words: marketing strategy, improving product quality and quality assessment, identifying potential customers, analytical evaluation, tools.

Аннотация. В данной статье проведён анализ разработки маркетинговой стратегии предприятий сферы услуг, эффективной организации её реализации, а также оценки уровня результативности. Подробно изучены исследования зарубежных учёных, выполненные в данной области. Кроме того, рассмотрены вопросы необходимости уделения внимания принципам планирования в процессе оценки маркетинга, формирования стратегии оценки роста предприятия на основе трёхэтапного анализа, основные этапы маркетингового контроля, цели маркетинговой программы в рамках производственного подразделения, а также критерии и методы, применяемые при оценке маркетинговой стратегии, включая влияние факторов макро- и микросреды.

Ключевые слова: маркетинговая стратегия, повышение качества продукции и оценка качества, выявление потенциальных клиентов, аналитическая оценка, инструменты.



KIRISH

Bugungi kunda marketingni rejalashtirmaydigan korxonalar raqobatli bozorda yo'nalishni yo'qotib, iqtisodiy ziyon ko'rish ehtimolini oshiradi. Aksincha, marketingni rejalashtirish tizimini yo'lga qo'ygan korxonalar vaziyatni to'liq nazorat ostiga oladi hamda ularning faoliyati bozor samaradorligi va yuqori iqtisodiy natijadorlik bilan ajralib turadi.

Xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar uchun marketing strategiyasini baholash mezonlari va usullarini ishlab chiqish hanuzgacha murakkab vazifa hisoblanadi. Chunki marketing bo'limi orqali iste'molchilarga yetkazilgan xizmatning ta'sirini doimiy ravishda o'lchash imkoniyati mavjud emas, shuningdek, ushbu xizmatlar orqali yaratilgan qo'shimcha qiymat har doim ham aniq va o'lchanadigan natijani keltirib chiqarmaydi.

Marketing mutaxassislari korxona va marketing strategiyasi samaradorligi masalalariga yetarlicha e'tibor qaratayotgan bo'lsa-da, hozirgi kunda marketing strategiyasi faoliyatini obyektiv baholashga imkon beradigan aniq tuzilgan modellar, usullar hamda standartlashtirilgan ko'rsatkichlar tizimi hali to'liq shakllanmagan. Shu sababli ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb bo'lib, o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Marketing faoliyatini samarali yo'lga qo'yish, uning strategiyasini ishlab chiqish hamda samaradorligini baholash bo'yicha iqtisodchi olimlar tomonidan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, marketing faoliyati samaradorligini baholash ichki ko'rsatkich sifatida qaraladi: zarur holatlarda uni o'lchash nisbatan oson bo'lib, takomillashtirish imkoniyati ham mavjud. Boshqa tomondan, samaradorlik tushunchasi iste'molchilarning ehtiyojlarini qondirish bilan bevosita bog'liq bo'lib, tashqi ko'rsatkich sifatida talqin etiladi. Bunday ko'rsatkichni o'lchash murakkab bo'lib, uning to'liq namoyon bo'lishi uchun uzoq muddat talab etiladi.

Iqtisodchi olimlardan biri Piter Druker samaradorlik tushunchasini tahlil qilib, mahsuldorlik va samaradorlikni taqqoslaydi hamda ularning mohiyatini quyidagicha izohlaydi: "Mahsuldorlik sizga kerak bo'lgan hamma narsani bajarish imkonini beradi, samaradorlik esa sizga kerakli narsani izlab topishdir" [1].

Marketing sohasi olimlaridan biri Filipp Kotler o'zining ilmiy izlanishlarida marketing faoliyati samaradorligiga alohida e'tibor qaratib, quyidagi fikrni ilgari suradi: "Samaradorlikni doimiy kuzatib borish har qanday firma uchun juda muhim jarayon" [2].

Marketing faoliyati samaradorligini baholashda sifat usuli marketing nazorati va auditidan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ushbu jarayonda tashkilotning tashqi muhiti, shuningdek, ichki muhiti SWOT tahlili natijalari asosida tahdid va imkoniyatlar bo'yicha har tomonlama tahlil qilinadi. Natijaga yo'naltirilgan marketing nazorati va audit tashkilot faoliyatining sifat jihatlarini baholashga xizmat qiladi [3].

Marketing faoliyati samaradorligini baholashning miqdoriy usuli marketing xarajatlari amalga oshirilgandan so'ng olingan yalpi foyda bilan marketing va reklama xarajatlari o'rtasidagi nisbatni taqqoslashga asoslanadi. Mazkur yondashuv tashkilot faoliyatining yakuniy moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlar orqali tahlil yuritishni talab qiladi [3].

Marketing faoliyati samaradorligini baholashning sotsiologik usuli amaliy sotsiologiya vositalaridan foydalanishga, jumladan, sotsiologik tadqiqot dasturini ishlab chiqish hamda unga muvofiq tadqiqotni bevosita amalga oshirishga qaratilgan bo'ladi [4].

Marketing faoliyati samaradorligini baholashning balli usuli esa mezonlar ro'yxatiga rioya etilishi, tuzilmalar va jarayonlarning marketing konsepsiyasiga mosligi kabi omillarni inobatga olgan holda har bir mezon bo'yicha ma'lum ball berish orqali samaradorlikni aniqlash imkonini beradi [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada xizmat ko'rsatish korxonalarida marketing strategiyasini baholash mezon va usullarini asoslash maqsadida nazariy tahlil, taqqoslash, tizimli yondashuv hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Marketing strategiyasining natijaviyligini baholashda marketing rejalashtirish tamoyillari, strategik baholashning uch bosqichli yondashuvi hamda marketing nazoratining asosiy bosqichlari konseptual asos sifatida yoritildi.

Shuningdek, tadqiqotda marketing dasturining tarkibiy elementlari (tovar, narx, taqsimot, kommunikatsiya va marketing byudjeti) bo'yicha analitik baholash amalga oshirilib, makro va mikromuhit omillarining ta'siri inobatga olindi. Natijalar asosida xizmat ko'rsatish korxonalarida marketing strategiyasini samarali baholash va takomillashtirish bo'yicha amaliy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Marketing strategiyasini baholash — bu korxona imkoniyatlarini bozor talablari bilan moslashtirishga qaratilgan, uning bozordagi harakatlarini tahlil qilish, ishlab chiqish va nazorat qilishdan iborat uzluksiz



jarayondir. Keng ma'noda marketingni baholash korxonaning marketing faoliyatini amalga oshirish vositasi, shuningdek, boshqaruv organlari tomonidan marketingga oid qarorlarni qabul qilish va amalga oshirish usuli hisoblanadi. Amaliy jihatdan esa bu korxonaning bozordagi maqsadlari, ushbu maqsadlarga erishish yo'llari hamda tegishli chora-tadbirlarini aks ettiruvchi hujjatdir.

Sotsialistik reja asosidagi iqtisodiyot davrida mavjud bo'lgan buyruqbozlik rejalaridan farqli o'laroq, marketing rejalarini bajarilishi majburiy bo'lishi shart bo'lmagan hujjat sifatida shakllanadi, chunki tashqi muhit sharoitlari doimiy ravishda o'zgarib turadi. Shu sababli marketingni rejalashtirishning asosiy vazifasi kelajakni aniq bashorat qilish emas, balki korxona menejerlarining e'tiborini joriy bozor sharoitining muhim jihatlari hamda yuzaga kelayotgan yangi imkoniyatlardan samarali foydalanishga qaratishdan iborat. Marketingni rejalashtirish orqali boshqaruvchilar korxona o'z maqsadlariga erishish uchun bozorda qanday pozitsiyani egallashi lozimligini aniq tushunish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Marketingni baholashda rejalashtirish tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Tizimli baholash yondashuvi. Korxona rejasi — o'zaro bog'liq rejalar tizimi bo'lib, ulardan biri marketing rejasi hisoblanadi.
2. Individual baholash yondashuvi. Korxonalar, ularning maqsadlari va ishlab chiqaradigan mahsulotlari xilma-xilligi marketingni rejalashtirishda individual yondashuvni talab etadi.
3. Ko'p variantlilik.
4. Dinamiklik. Korxona faoliyatiga ta'sir etuvchi barcha o'zgarishlar zudlik bilan rejalariga kiritib borilishi lozim.

Korxona faoliyatini strategik baholashni rejalashtirish sotish hajmi, foyda olish va rentabellik ko'rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qiladi. Strategik baholashni rejalashtirish — bu korxonani kelajakda qanday ko'rish, uning iqtisodiyotdagi hamda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni va rolini aniqlash, shuningdek, yangi darajaga erishish yo'llari va vositalarini ishlab chiqishdir. Strategik rejalashtirishda aniq hisoblangan ko'rsatkichlar doimo mavjud bo'lmaydi; aksincha, u turli bashoratlar asosida kelajakka nazar tashlash va mo'ljallarni belgilashga qaratiladi.

Korxona dasturi esa uning joriy holati, mijozlari, mijozlar uchun qadriyatli tomonlari hamda istiqboli haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Savdo korxonasi bunday dasturni doimo diqqat markazida saqlashi va muntazam ravishda tuzatishlar kiritib borishi zarur. Korxona dasturi maqsadlarni belgilash, ularning ahamiyatini oshirish hamda maqsadga erishish yo'liga yo'naltirishda muhim rol o'ynaydi.

Dasturda korxonaning faoliyat doirasi ham ko'rsatiladi. Ushbu doiraning chegarasi mahsulotlar, texnologiyalar, mijozlar guruhi, ularning ehtiyojlari yoki bir nechta omilning uyg'unligi orqali belgilanishi mumkin. Masalan, avtomashinalar, radio-teleapparatlar va boshqa tovarlarni sotish tovarlar doirasi chegarasini ifodalaydi. Savdo korxonasining imkon qadar keng tovar assortimentiga ega bo'lishi tavsiya etiladi.

Korxonaning vazifalari va maqsadlari bosqichi har bir boshqaruvchi hamda rahbariyat a'zosi oldiga aniq maqsadga erishishga qaratilgan vazifalarni qo'yadi. Har bir xodim o'z vazifalarining bajarilishida shaxsan javobgardir.

Agar korxonaning asosiy maqsadi foyda olish bo'lsa, ushbu maqsadga erishish uchun foyda keltiruvchi tovarlar sotuv hajmini oshirish va ularning umumiy savdo tarkibidagi ulushini kengaytirish lozim. Buning uchun tovar manbalarini izlash va ulardan eng samarali variantlarni tanlash zarur bo'ladi. Shu jarayonda marketing sohasiga tegishli qator vazifalar yuzaga keladi va bu marketing strategiyasini ishlab chiqishni talab qiladi. Bunda bozor, taklif manbalari hamda korxonaga tegishli har bir tovar bo'yicha bozor kon'yunkturasi chuqur o'rganilib, tegishli xulosalar chiqariladi.

Korxona xo'jaligini rivojlantirish rejasi strategik rejalashtirishning muhim bosqichi hisoblanadi. Ushbu rejada xo'jalik faoliyatining asosiy yo'nalishlari tahlil qilinadi, ayrim tovarlarning rentabelligi aniqlanadi. Rentabellik darajasiga qarab tovarni savdoda qoldirish yoki chiqarib tashlash, yangi tovarlarni jalb qilish yoki rad etish kabi qarorlar qabul qilinadi. Yuqori rentabellikka ega tovarlarga ko'proq moliyaviy resurs ajratiladi, kam foydali tovarlardan esa bosqichma-bosqich voz kechiladi.

Korxonaning o'sish strategiyasini baholash uchun uch bosqichli tahlil asosida yondashuvni shakllantirish mumkin.

Birinchi bosqich: hozirgi faoliyat doirasida foydalanish mumkin bo'lgan imkoniyatlar aniqlanadi. O'sishga erishish uchun mavjud tovar yoki bozor sharoitida yangi imkoniyatlarni topish hamda ulardan foydalanishga intilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday imkoniyatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tovarni bozorga chuqurroq singdirish: masalan, raqobatchilarga nisbatan arzonroq narxda sotish, belgilangan sotuv hajmidan so'ng xaridorga mukofot berish, yangi iste'molchilarni jalb etish;
- bozor chegarasini kengaytirish: mavjud tovar bilan yangi bozorlarga kirish;
- tovarni takomillashtirish: mavjud tovarga nisbatan keskin farq qiluvchi, sifati va iste'mol qiymati yuqori bo'lgan yangi tovar yaratish.




Ikkinchi bosqich: korxona tarmoq doirasida boshqa korxonalar bilan hamkorlik (integratsiya) orqali rivojlanishi mumkin. Bunda taqsimot tizimi qat'iy nazorat ostiga olinadi, raqobatchi firmalar doimiy kuzatib boriladi. O'sish jarayoni korxonaning mavjud sohasiga yaqin bo'lgan yangi yo'nalishlarni tanlash va o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi.

Uchinchi bosqich: strategik rejalashtirish korxona faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi va mahsulot ishlab chiqarish hamda sotish sohasidagi barcha harakatlarning maqsadga muvofiqligini ta'minlaydi. Keyinchalik har bir yo'nalish bo'yicha batafsil rejalar tuziladi. Marketing konsepsiyasini qo'llaydigan korxonalar uchun savdo natijalari ayniqsa muhimdir. Shu sababli, tovar nusxasini yaratishdan boshlab pirovard sotishgacha bo'lgan butun tovar harakati jarayonini qamrab oluvchi marketing rejalashtirish alohida o'rin tutadi.

Marketing faoliyatini operativ rivojlantirishda esa qisqa muddatli reja va chora-tadbirlar aniqlanadi hamda taktik dasturlar shakllantiriladi. Strategik, taktik va operativ marketing rejalarini ishlab chiqish jarayonida rejalashtirishning turli uslublaridan foydalaniladi. Ular muddati bo'yicha quyidagicha farqlanadi:

- uzoq muddatli rejalashtirish uslublari: portfel tahlili, morfologik tahlil, delphi usuli;
- o'rta muddatli rejalashtirish uslublari: tarmoqli rejalashtirish texnikasi, "maqsadli daraxt" bo'yicha qaror qabul qilish, morfologik tahlil, chiziqli dasturlash, moliyaviy-matematik usullar, evristik usullar;
- qisqa muddatli rejalashtirish uslublari: tarmoqli rejalashtirish, chiziqli dasturlash, transport masalalarini optimallashtirish, evristik usullar.

Amaliyotda tarmoqli rejalashtirish, bozor tahlili, moliyaviy-matematik modellar hamda chiziqli dasturlash kabi usullar keng qo'llanilmoqda.



1-Rasm. Marketingni nazorat qilish jarayoni asosiy bosqichlari

Manba: Adabiyotlar asosida mualliflar ishlanmasi

F. Kotler (1974) marketing faoliyatini baholashni ikki asosiy turga ajratib, ularning marketing boshqaruv tizimiga ta'sirini tahlil qilgan. Ushbu turlar — tashqi va ichki muhit omillarining o'zgarishiga nisbatan korxona tomonidan ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga bog'liq bo'lib, marketing nazoratini ochiq va yopiq tizimlar sifatida tasniflaydi. Ochiq tizimda tashqi muhitdagi o'zgarishlarga moslashuvchanlik ustun bo'lsa, yopiq tizimda esa ichki jarayonlarni qat'iy nazorat qilish asosiy o'rinni egallaydi.

Muddati bo'yicha marketing baholash qisqa muddatli, o'rta muddatli hamda uzoq muddatli dasturlarga bo'linadi. Amaliyotda ayrim korxonalar strategik barqarorlikni ta'minlash maqsadida ikki yoqlama dastur, ya'ni uzoq muddatli strategik reja hamda qisqa muddatli operativ dasturlarni birgalikda ishlab chiqishga intiladi.

Shuningdek, qamrab olgan vazifasiga ko'ra marketing dasturlari oddiy (umumiy yo'nalishdagi) yoki maqsadli (aniq natijaga qaratilgan) dasturlarga ajratiladi. Maqsadli dasturlar, ayniqsa, aniq bozor segmentlariga, mahsulot turkumlariga yoki marketing aralashmasining alohida elementlariga qaratilgan bo'lib, natijaviylikni oshirishda muhim rol o'ynaydi.



1-jadval. Marketing dasturining asosiy tarkibiy elementlari va ularni shakllantirishda hisobga olinadigan mezonlar.

Marketing elementi	Hisobga olinadigan asosiy mezonlar va ko'rsatkichlar
Tovar siyosati	- Tovarning yangilik darajasi - Mahsulot assortimentining kengligi - O'xshash yoki o'rinbosar tovarlar soni - Mijoz ehtiyojlariga moslik darajasi - Sifat, texnologik murakkablik - Sotishgacha va sotuvdan keyingi xizmat talablari - Standartlashtirish / moslashuvchanlik - Patent himoyasi va sofligi - Tashkiliy tuzilmaning yangi ishlab chiqarishga mosligi - Yangi tovar yaratish xarajatlari - Sertifikatsiya majburiyligi - Rentabellik, investitsiyani qaytarish muddati - Yangi assortimentni o'zlashtirish muddati
Narx siyosati	- Raqobatchilar amaliyoti - Firma imkoniyatlari va maqsadlari - Bitta mahsulot uchun narx darajasi - Tovar hayot tsikliga mos narx dinamikasi - Assortimentdagi narx nisbati (sifat, texnika, yangilik) - Raqobatdosh tovarlar bilan narx munosabati - Talabning narxga elastikligi - Funksional va sof raqobat darajasi - Kirish/yuqori foyda/raqobatga qarshi narx strategiyasi - Servis, brend mashhurligi, sotish kanali uzunligi, chegirmalar
Sotish (taqsimot) siyosati	- Bozor segmentining sotuv tarmog'iga talabi - Kompaniyaning bozordagi tajribasi - Vositachilardan foydalanish maqsadga muvofiqligi - Vositachilar orqali sotish hajmini oshirish imkoniyati - Vositachilarning ishonchliligi va siyosati - Sotish tizimini yaratish uchun moliyaviy resurslar - Shaxsiy sotuv vs. vositachilar: solishtirma rentabellik - Etkazib berish mexanizmlari - Potensial buyurtmachilar soni va taqsimoti - Geografik konsentratsiya - Iste'molchilarning xarid odatlari - Tovarning bo'linuvchanligi, talabning o'zgaruvchanligi - Rahbariyatning faol kurash strategiyalari - Sotish kanallarini nazorat qilish darajasi
Kommunikatsiya (promotion) siyosati	- Reklama siyosatining xususiyatlari - Reklama argumentlari - Tovar hayot tsikliga mos reklama rejasi - Samarali reklama vositalari (TV, ijtimoiy tarmoqlar, print va boshqalar) - Reklama xarajatlari hajmi - Reklama samaradorligini baholash usullari - Reklama mazmunining tovar xususiyatlariga mosligi - Yarmarka/ko'rgazmalarda qatnashish samaradorligi - Iste'molchilar va vositachilarni rag'batlantirish vositalari - Sotishni rag'batlantirishga mablag' ajratish usullari (foiz, foyda, sotuv hajmiga asoslanib)
Marketing byudjeti	- Barcha marketing chora-tadbirlari xarajatlari - Marketing tadqiqotlari xarajatlari - Bozor bashoratlari tuzish xarajatlari - Ichki imkoniyatlarni o'rganish xarajatlari - Dasturni ishlab chiqish xarajatlari - Marketing xodimlari ish haqi - Tashqi marketing/reklama agentliklari xizmatlari - Vositachilarga to'lovlar - Dasturning ex-ante va ex-post baholash xarajatlari - Monitoring, nazorat va audit xarajatlari - Joriy o'zgartirishlar uchun moliyaviy zaxira



1-jadvalda ko'rsatilgandek, zamonaviy marketing dasturi faqat tovar yoki narxni belgilashdan tashqari, resurslar taqsimoti, tashqi muhit omillari, mijoz xatti-harakatlari hamda monitoring mexanizmlarini ham o'z ichiga oladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga tayanib xulosa qilish mumkinki, korxona marketing strategiyasini baholashda turli xil ko'rsatkich va mezonlarni inobatga olish, shuningdek, har bir ko'rsatkich hamda mezon bo'yicha alohida tahliliy ishlarni amalga oshirish muhim hisoblanadi. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida tashqi muhitning tez o'zgarishi va korxonalar bozor faoliyatining murakkablashuvi natijasida biznes jarayonlarini takomillashtirish, iste'molchilar ehtiyojlarini to'liq qondirish, xizmat ko'rsatish sifatini har bir yo'nalishda oshirish hamda marketing samaradorligini doimiy ravishda kuzatib borish va baholash alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, marketing strategiyasini baholash jarayonida korxonada standartlashtirilgan ko'rsatkichlar tizimini (KPI) joriy etish zarur. Bunda sotuv hajmi va foyda kabi moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda, mijozlar qoniqish darajasi, sodiqlik indeksi, xizmat ko'rsatish tezligi, reklama samaradorligi hamda bozor ulushi kabi nomoliyaviy ko'rsatkichlardan ham kompleks foydalanish lozim. Ayniqsa xizmat ko'rsatish korxonalarida xizmat sifati bevosita inson omiliga bog'liq bo'lgani sababli, marketing natijadorligini baholashda mijoz fikrini muntazam o'rganish va uning asosida tezkor tuzatishlar kiritish samaradorlikni oshiradi.

Bundan tashqari, marketing nazoratini yanada kuchaytirish maqsadida korxonalarda raqamli monitoring va analitik tizimlarni keng joriy etish tavsiya etiladi. Xususan, CRM platformalari, onlayn so'rovnomalar, veb-analitika hamda ijtimoiy tarmoqlardagi tahliliy vositalardan foydalanish orqali marketing strategiyasining real natijalarini tezkor baholash imkoniyati paydo bo'ladi. Natijada korxona bozor talablariga moslashuvchan ravishda harakat qilishi, resurslarni oqilona taqsimlashi va marketing strategiyasining barqaror samaradorligini ta'minlashi mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Дойль, П. Маркетинг-менеджмент и стратегии: 3-е изд. / пер. с англ.; под ред. Ю. Н. Каптуревского. — Санкт-Петербург, 2002. — 538 с.
2. Котлер, Ф., Келлер, К. Л. Маркетинг менеджмент: Экспресс-курс: 3-е изд. / пер. с англ.; под науч. ред. С. Г. Жильцова. — Санкт-Петербург, 2007. — 475 с.
3. Ковалев, А. И., Войленко, В. В. Маркетинговый анализ: 2-е изд., перераб. и доп. — Москва, 2000. — 109 с.
4. Голубков, Е. П. Основы маркетинга. — Москва, 2003. — 58 с.
5. Завгородняя, А. В., Ямпольская, Д. О. Маркетинговое планирование.
6. Ламбен, Ж.-Ж. Менеджмент, ориентированный на рынок / пер. с англ. — Санкт-Петербург: Питер, 2004. — 800 с.
7. Портер, М. Конкурентная стратегия: Методика анализа отраслей и конкурентов / пер. с англ. — Москва: Альпина Бизнес Букс, 2005. — 454 с.
8. Ансофф, И. Стратегическое управление / пер. с англ. — Москва: Экономика, 1989. — 519 с.
9. Аакер, Д. А. Стратегическое рыночное управление / пер. с англ. — Санкт-Петербург: Питер, 2002. — 496 с.
10. Друкер, П. Ф. Эффективный руководитель / пер. с англ. — Москва: Вильямс, 2004. — 224 с.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>